MARKAZIY OSIYODA SIYOSATNING TUSHUNILISHI VA MAZMUN-MOHIYATI (XORIJIY MAMLAKATLAR ILMIY TADQIQOT ASARLARI MISOLIDA)

Baxtiyor Abdixakimovich Alimdjanov

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunosik instituti katta ilmiy xodimi

Shodmonov Allamurod Farxod o'g'li

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola davriy nuqtayi nazardan milodiy XVII-XXI asrlar davomidagi siyosiy-ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga olgan bo'lib, asarlarda mavjud voqelik, Markaziy Osiyo aholisining tahlilga olinayotgan davr nuqtayi nazarini va siyosatga bo'lgan munosabatlarini tahlil qiladi. Xulosa qismida xorijiy tadqiqotchilar mahalliy aholi hayotidagi davr o'zgarishlari , mavjud voqealar va hodisalarga munosabatini siyosiy mafkurasidan kelib chiqib izoh bergani yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Neoliberalizm, Markaziy Osiyo, Yujin Skayler , mahalliy aholining siyosiy hayotga minimal aralashuvi, G'arb va Sharqda demokratiya tushunchasining tushunilishi, Yablokov , patriarxat va paternalizm, siyosatning anaxronistik tamoyili , globallashuv va siyosiy aralashuv masalalari.

Hozirgi kunda siyosatning tushunilishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu uzoq davom etadigan, ammo hozirda inkor etib bo'lmaydigan narsalar demakdir. Nega yaqin yillargacha mavjud siyosatdan, mamlakat hayotida ro'y berayotgan voqeliklardan mahalliy aholi orasida siyosatchilar, hukmron doiralar va siyosatga nisbatan nafrat paydo bo'lgan? Britaniyalik siyosatshunos Kolin Xey ta'kidlaydiki, neoliberalizmning elita qatlami sohiblari "qattiq chegaralangan" qonunlar mavjud siyosiy tuzumga nisbatan salbiy qarashlarni olib kelgan bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. Biroq siyosiy soha vakillari globallashuvning borgan sari "anaxronistik tabiati" tufayli shunday munosabat shakllangan degan fikrga keladi. Chunki "siyosiy aralashuv" umuman siyosatga va liberal demokratiyaga nisbatan nafratni keltirib chiqaradi deya ta'kidlaydi u. Shuni hisobga olib, davlat bu jamiyat farovonligi siyosatchilarning takroriy va cheksiz urushlarga yechim topish va siyosat qurish va uni amalga oshirishga g'amxo'rlik qiladigan alohida mexanizmlar tashkil etishga mas'ul bo'lgan siyosiy infratuzilma deb atasak xato bo'lmaydi. Jumladan, bu har ikki tarafda ham siyosat va hukumatga nisbatan nafratlanish tuyg'usini uyg'otmasligi kerak. G'arb va Sharq demokratiyalarini tahlil tarozisiga olar ekansiz, Markaziy Osiyoliklarni mavjud hukumatlari va siyosiy hayotiga beparvo va g'ayritabiiy noroziligiga duch kelasiz. Ular jamiyatdagi jarayonlar hukmron doira uchun ahamiyatsiz deb hisoblashadi. Yujin Skaylerning ta'kidlashicha, siyosiy hayotda aholining deyarli ishtiroki kuzatilmaydi. Ular faqat qonun va qarorlarning bevosita iste'molchilari, ishtirokchilari yoki tomoshabinlari kabidir. Buxoro, Xiva, Qo'qon va Kuljaga qilgan sayohatlari davomida amirlik va xonlikda yashayotgan aholini taqqoslar ekan, etnik jarayonlardagi o'zgarishlardan tashqari hech bir jihatdan aholi maishiy hayoti va dunyoqarashi farq qilmasligi uni hayratga soladi va bu xonliklar kesimida aniq ta'riflab beriladi.

Bu davrdagi siyosiy qarashlarni tahlil qilar ekanmiz, dastlab siyosatga bo'lgan talab va taklif aspektlarini farqlashimiz zarurdir:

- Siyosiy norozilik dastlab ijtimoiy hayotda cheklanmagan omillarda eng aniq namoyon bo'ladi va antisiyosiy tushkun kayfiyatni olib keladi

-Etnik jihatdan ozchilik aholi orasida chor Rossiyasiga nisbatan nostalgiyaning mavjudligi

-siyosiy hayotda o'zgarishlarga nisbatan talabning yetarli emasligi yoxud siyosiy hayotda ma'lum bir cheklovlarning mavjudligi

-erkin namoyishchilar tomonidan siyosiy ishtiroklardan chekinish

-jamiyat hayotida patriarxat va paternalizm tushunchalarining mavjudligi

-mehnat ahlining ommaviy migratsiyasining madaniy va siyosiy oqibatlari .

-mahalliy aholining ta'minot omillari masalasi

-avtoritar kleptokratiyaning siyosiy uslub sifatida yuksalishi va hokazolar .

Rossiyaday ulkan mamlakat o‘zi juda istagan taqdirda ham chetda qolib ketmaydi. Uning resurs, logistika va jug‘rofiy-siyosiy potensiali juda katta. Hatto Rossiya hech narsa qilmagan taqdirda ham mavjudligining o‘ziyoq dunyodagi vaziyatga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omilligicha qolaveradi. Lekin har qanday harakat haqida gapiradigan bo‘lsak, u butun dunyoda aks-sado beradi. Global siyosat o‘zgarayotgani esa – boshqa masala. Rossiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo deganda sovet geografiyasidagi O‘rta Osiyo va Qozog‘istondan iborat 5 ta mamlakat: Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston tushuniladi. Amerikacha yondashuvlardan farqli o‘laroq, Afg‘oniston Markaziy Osiyoga kirmaydi, shuning uchun u zehniyat (mentalitet), makon bilan qadriyatlar nuqtai nazaridan butunlay boshqa hududdir. Nima bo‘lganda ham, Afg‘oniston – yondosh hudud, unga jug‘rofiya, iqtisodiy loyihalar va xavfsizlikni ta’minlash nuqtai nazaridan doktrina darajasida va amaldagi tashqi siyosat darajasida shunday nisbat beriladi.

Aleksey Malashenko bir maqolasida shunday deb yozgan edi: “Moskvaning muammosi shundaki, u Markaziy Osiyo mamlakatlari ichki siyosiy vaziyatiga aytarli ta’sir ko‘rsata olmaydi (yoki deyarli ko‘rsata olmaydi)”. Ko‘plab G‘arb ekspertlari iddao qilishicha, go‘yo Rossiyaning Markaziy Osiyoga oid strategiyasi yo‘q va Moskva SSSR parchalanib ketishi bilan mintaqani “yo‘qotgan” yoki qo'ldan boy bergan. Barcha mamlakatlar siyosat yuritishda sharoitga qarab ish tutish uchun makonni saqlab qolishga intilmoqda, bundan Markaziy Osiyo ham mustasno emas. Rossiyaning dunyoning ushbu qismida barqarorlik va xavfsizlikni saqlab qolish bilan bog‘liq manfaati bor. Uni murakkab tarzda omuxta qilingan strategiya asosida amalga oshirish zarur, u ikki tomonlama va mintaqaviy jihatlar, iqtisodiy hamda ijtimoiy va siyosiy choralarni bir-biriga qo‘shadi. Tayyor turgan retseptlar yo‘q, boz ustiga, tashqi kontur jadal o‘zgarib bormoqda. Ehtimol Rossiyaning stragetiyasi yo‘qdir, lekin uning taktikasi juda faol davlatlardan biri bo'lib qolmoqda. Ichki siyosiy ta’sir nuqtai nazaridan qarasak, birinchidan, Rossiyaning oldida bunday vazifa turgani yo‘q. Aksincha, Moskva har doim Markaziy Osiyo mamlakatlarining rasmiy hokimiyatini qo‘llab va u bilan hamkorlik qilib kelayotganiga guvoh bo'lamiz.

Quyida biz siyosat maydonida Sovet va postsovet davridagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarning avj olish davrinining asosiy sabablari sifatida ijtimoiy hayotning natsionalizatsiya va bir xildagi diplomatiyasi, fuqarolar va siyosiy muxolifat uchun ham mamlakat ichida, ham xalqaro doirada siyosiy vaziyatning yetilganligi, xorijiy elchilarning ”madaniy diplomatiyasi”

Sovet davridagi ijtimoiy davlatni neoliberalizmning postsovet g'alabasi bilan almashtirishga bo'lgan urinishlar, mustamlaka aholi orasida ma'lum soha va doiralarning cheklanishi va polis nazorati uchun raqobat, umuman olganda, jamoatchilik g'oyalariga qarshi siyosat Markaziy Osiyo xalqlari qalbida siyosatga va hukmron doira vakillariga nisbatan nafrat va ishonchsizlik g'oyalarining avj olishiga olib keldi.Jamiyat vakillari uchun siyosat fuqarolar hayotining boshlang'ich nuqtasi , milliy va mahalliy boshqaruvda transmilliy jarayonlar Qayta qurish davrida ham davom etdi va neoliberalizm va globallashuv g'oyalari shartli ravishda g'alaba qozondi Postsovet davlatlari esa davlat sotsializmidan global miqyosga o'tishning afzalliklarini anglab yetdi va demokratlashtirishda siyosatda mashhur bo'lgan "Offe va Adlerning formulasi"ning "uchinchi to'lqini" amalda o'z tasdig'ini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yujin Skayler . "Turkiston: Rus Turkistoni, Qo'qon, Buxoro va Kuljaga sayohat kundaligi "., New York, 1876.
2. Kuzikulov Ikromjon Umaraliyevich. "Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining Turkistondagi etnomadaniy jarayonlarga ta'siri (Farg'ona vodiysi materiallari asosida)"., Termiz, 2022.
3. F.A.Ahmadjonov. "Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda". Toshkent, 2003.
4. Азадаев Ф., «Ташкент во второй половине в XIX В: Очерки социально-экономический и политической истории» , Т., 1959.
5. Ahmedjanov G.A. "Rossiya imperiyasi davrida O'rta Osiyo", T., 1995.
6. Abduraximova N.A. "Turkistonda siyosiy jarayonlar" , Nukus, 1988.
7. Abduraximova N.A. "XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida Turkistonda mustamlaka siyosatining ta'siri", T., "Universitet", 1999.
8. John Bukwolter. "Siberia and Central Asia", Springfield, 1899.
9. Oley Olufseen. "The emir of Bokhara and his country (journeys and studies in Bokhara)" . London, 1911.
10. Maria Whitefield de Bourdon. "De Paris à Samarkand, le Ferghanah, le Kouldja et la Sibérie occidentale : impressions de voyage d'une parisienne Maria Whitefield de Bourdon", Parij, 1880.
11. Abdul Ghani, "A review of the political situation in Central Asia" , Lahore, 1921.